| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR KENGASHINING QARORI | | QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ MINISTRLER KEŃESINIŃ QARARÍ |
|---|---|---|

| 2023 - yil 18 - noyabr | 413-13-0-Q/23 | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi |
|---|---|---|

# Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi sohasi tormoqlarini rivojlantirish hamda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib mahsulot yetishtirish hajmlarini oshirish bo'yicha

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, ichki bozorda aholi talabini ta'minlash va narxlar barqarorligini saqlash hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni iqtisodiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Qishloq xo'jaligi tormoqlaridagi mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, 2-3 marta hosil olishni yo'lga qo'yish, "har bir kun - bu imkoniyat, har bir kun - bu kelajak uchun poydevor" - g'oyasi asosida mahsulot yetishtirishni samarali tashkil qilish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi hamda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining takliflari ma'qullansin.

2. Quyidagilar:

Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida 2023-yilda "Bir mahalla bir mahsulot" tamoyili asosida bir xil turdagi mahsulot yetishtirish yo'lga qo'yilgan mahallalar to'g'risida ma'lumot 1-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida 2023-yilda "Bir mahalla bir mahsulot" tamoyili asosida bir xil turdagi mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtiriladigan mahallalar to'g'risidagi prognoz ko'rsatkichlar 2-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlarida 2024-yilda aholi tomorqa yerlarida tashkil etilishi rejalashtirilgan ixcham issiqxonalar bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlar 3-ilovaga muvofiq;

2024-yilda suv ta’minoti og‘ir hududlardagi tomorqa yer egalarining ekin maydonlarini sug‘orish uchun arteziyan quduqlarini qazish to‘g‘risidagi prognoz ko‘rsatkichlar 4-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2024-yilda bog‘ va uzumzorlar orasiga ekilgan ekinlardan olinadigan mahsulotlar rejasi 5-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-2024-yillarda paxta-to‘qimachilik klaster korxonalari va fermer xo‘jaliklari hisobidagi ichki sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish ko‘rsatkichlar 6-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-2024-yillarda xo‘jalik ichki nasos agregatlarini ta’mirlash, eskirgan nasoslarni yangisiga almashtirish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlar 7-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-2024-yillarning kuz-qish davrida xo‘jalik ichki sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalash va ta’mirlash rejasi 8-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-dekabrdagi 703-sonli qarori asosida agroklasterlar boshqaruviga beriladigan suv xo‘jaligi obyektlari ko‘rsatkichlar 9-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlarida faoliyat yuritayotgan “xalqchil klaster” paxta-to‘qimachilik klasterlar korxonalarining tashabbuslari bilan 2023-2024-yillarda amalga oshirilishi belgilangan tadbirlar rejasi 10-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2024-yilda chorvachilik va parrandachilik yo‘nalishida yangidan kompleks tashkil etish rejasi 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog‘iston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tuman hokimliklari bilan birgalikda:

tomorqa xo‘jaliklari bilan agrosanoat klasterlari, tayyorlov, qayta ishlash va eksportyor korxonalarni jalb etgan holda kooperatsiya aloqalarini tashkil etishga ko‘maklashish;

aholi xonadonlarida, parranda, kurka, quyon, qo‘y va echki hamda asalari boqishni tashkil etish;

mahsulot yetkazib beruvchi va xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar ro‘yxatini shakllantirgan holda, joylarda “tarqatish va mahsulotlarni yig‘ib olish bo‘yicha mobil xizmatlar” faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

fermer xo‘jaliklari dala chetlariga ekin ekish ishlarini tashkil etish;

“xonadonbay” ishlash asosida hududlarning tuproq-iqlim sharoiti va hudud aholisining tajribasidan kelib chiqqan holda tomorqa xo‘jaliklarini “Bir mahalla - bir mahsulot” tamoyili asosida mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirish;

har bir mahallada kooperatsiya asosida parranda, quyonchilik, qo‘y-echkichilik, asalarichilik va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullanish istagini bildirgan yetakchi tadbirkorlarni aniqlash topshirilsin.

Shuningdek, tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanilishi bo‘yicha ishlarni manzilli tashkil etish maqsadida tomorqa yer egalari va kooperatsiyalarni mahsulot ishlab chiqarishning yangi texnologiyalariga o‘rgatish, kooperatsiya a’zolarining yerlarida agrotexnik tadbirlar monitoringini o‘tkazish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning tashqi bozorlarda marketing tadqiqotlarini o‘tkazish bo‘yicha qisqa muddatli amaliy o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha reja ishlab chiqsin.

4. Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi, Agroxizmatlar markazi tuman hokimliklari bilan birgalikda:

iqtisodiy samarasiz, kam hosilli, yaroqsiz mevali bog‘ va uzumzorlarni aniqlash maqsadida mavjud maydonlarni har yili inventarizatsiya qilish hamda inventarizatsiya natijasidan kelib chiqib, hududlarning iqlim va tuproq sharoitini inobatga olib, yangidan tashkil etiladigan mevali bog‘ va uzumzorlarni turlari bo‘yicha joylashtirish rejasini ishlab chiqish;

xorijiy davlatlardan keltirilgan sovuqqa chidamli, hosildorligi yuqori mevali bog‘ va uzum navlarini «in-vitro» laboratoriyalarida hududlarning tabiiy-iqlim sharoitiga moslashtirib, yetishtirish choralarini ko‘rish;

tadbirkorlik subyektlariga mevali bog‘ va uzum plantatsiyalarida agrotexnik tadbirlarini o‘tkazish, yangidan barpo etish va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish;

shuningdek, bog‘ va uzumzorlar qator oralariga to‘liq to‘qsonbosti usulida qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish ishlarini tashkil etib, qo‘shimcha mahsulot yetishtirish choralarini ko‘rish topshirilsin.

5. To‘rtko‘l, Ellikqal’a va Kegeyli tumani hokimliklari 2023-2024-yillarda “Oltiariq tajribasi” asosida yangidan uzum plantatsiyalarini tashkil etsin.

6. Tuman hokimliklari Suv xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda suv xo‘jaligi sohasida paxta-to‘qimachilik yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan “xalqchil klaster” korxonalari tomonidan quyidagi tadbirlarni tegishli tartibda amalga oshirilishini nazoratga olish, jumladan:

63 dona xo‘jalik ichki nasos agregatlari ta’mirlash, 62 dona eskirgan nasos va 63 dona elektrodvigatellarni yangisiga almashtirish;

300,4 km dan ortiq sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish, 1,382 ming km xo‘jalik ichki sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari ko‘l kuchi hamda mexanizmlar yordamida tozalab, ta’mirlash ishlarini amalga oshirish;

15,505 ming km kollektor-drenaj tarmog‘i va 25 ta nasos stansiyalari davlat sheriklik shartlari asosida klasterlar korxonalari boshqaruviga berilishini ta’minlash;

Shuningdek, ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida kelgusi yilda 267 mln $m^3$ suvni tejalishi va o‘z navbatida 1 mln kVt elektr energiyasi iqtisod qilinishiga erishish.

7. Tuman hokimliklari Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda “xalqchil klaster” paxta-to‘qimachilik klasterlarining tashabbuslari bilan quyidagi tadbirlarning ijrosini tegishli tartibda tashkil qilish, jumladan:

40 ming gektar qishloq xo‘jaligidagi foydalanishdan chiqqan yerlarni qayta foydalanishga kiritish;

aholiga issiqxona sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni yo‘lga qo‘yish maqsadida 100 gektar maydonda issiqxona tashkil etish;

chorvachilikda mahsuldor naslli mol zotlarini ko‘paytirish, xalqimiz dasturxonini sifatli go‘sht va sut mahsulotlari bilan ta’minlash maqsadida 10 ming bosh chorva mollarini boqishni yo‘lga qo‘yish;

asalarichilik faoliyatini samarali tashkil etish, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirishda asalari bilan changlatish amaliyotini keng joriy etish;

paxta maydonlarining har bir konturidan analizlar olib, paxta hosildorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha agrotexnik tadbirlar belgilash tizimi yo‘lga qo‘yish maqsadida tuproq analizi laboratoriyalarini tashkil etish.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sovutkichli sig‘imlar uyushmasi Nukus shahri va tuman hokimliklari bilan birgalikda:

Nukus shahri va tumanlarda taqchillik ehtimoli aniqlangan asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining zaxirasini yaratish;

taqchillik sezilgan hududlarda faoliyat yuritayotgan chakana savdo shoxobchalari, yirik savdo markazlari va dehqon bozorlari bilan hamkorlikda ularga asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini tizimli yetkazib berish;

asosiy turdagi oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlashga ixtisoslashgan sovutkichli sig‘imlar, shuningdek, dehqon bozorlarining sovutkichli sig‘imlarini manzilli ro‘yxatini shakllantirish hamda doimiy ravishda yangilab borish choralarini ko‘rsin.

9. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasiga:

tuman hokimliklari bilan birgalikda chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida har bir tumanda kamida 1 tadan go‘sht va sut mahsulotlarini yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar tomonidan aholi xonadonlariga kooperatsiya usulida chorva mollari yetkazib berishni va yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash va sotishni tashkil etish;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda o‘zlashtiriladigan va bo‘sh turgan yer maydonlarini aholi xonadonlariga kooperatsiya usulida chorva mollari yetkazib berishni va yetishtirilgan chorva mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil etgan go‘sht va sut mahsulotlarini yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalarga, aholiga chorva ozuqasini yetkazib berish sharti bilan, chorva bosh soniga mutanosib ravishda ozuqa yerlarining ochiq elektron tanlov asosida ijaraga berilishini ta’minlash;

Suv xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda har bir tumanning konturlari kesimida vegetatsiya davrida ozuqabop ekin turlarining suvga bo‘lgan talabidan kelib chiqib, suv limitlarini yetkazib berish choralarini ko‘rish hamda kundalik ravishda yangilab boriladigan sug‘orish grafiklari haqida xabardor etib borilishini ta’minlash topshirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari D.Kaypov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi** **F.Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining
2023-yil 18-noyabrdagi
413-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida 2023-yilda "Bir mahalla bir mahsulot" tamoyili asosida bir xil turdagi mahsulot yetishtirish yo'lga qo'yilgan mahallalar to'g'risida**
**MA'LUMOT**

| T/r | Tuman (shahar)lar nomi | Jami MFYlar soni | Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari soni | Jami ekin maydoni, ga | Ixtisoslashgan MFYlar | | | Shu jumladan: | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | Sabzavotchilik | | | Kartoshkachilik | | | Polizchilik | | | Meva-bog'dorchilik | | | Rezavor mevalar | | | Chorvachilik (*sigir, qo'y va echki*) | | |
| | | | | | | | | amalda ixtisoslashgan | | | amalda ixtisoslashgan | | | amalda ixtisoslashgan | | | amalda ixtisoslashgan | | | amalda ixtisoslashgan | | | amalda ixtisoslashgan | | |
| | | | | | MFY soni | xonadon soni | yer maydoni, ga | MFY soni | xonadon soni | yer maydoni, ga | MFY soni | xonadon soni | yer maydoni, ga | MFY soni | xonadon soni | yer maydoni, ga | MFY soni | xonadon soni | yer maydoni, ga | MFY soni | xonadon soni | yer maydoni, ga | MFY soni | xonadon soni | yer maydoni, ga |
| 1 | Amudaryo | 49 | 39853 | 6652 | 21 | 18197 | 3642 | 12 | 11615 | 1959 | 3 | 2696 | 647 | 2 | 685 | 170 | 2 | 2717 | 585 | 1 | 438 | 97 | 1 | 46 | 184 |
| 2 | Sho'manoy | 13 | 8110 | 2045 | 5 | 699 | 67 | 3 | 343 | 21 | 1 | 243 | 29 | 1 | 113 | 17 | | | | | | | | | |
| 3 | Qonliko'l | 11 | 9225 | 1712 | 5 | 618 | 95 | 3 | 119 | 14 | 1 | 321 | 39 | 1 | 178 | 43 | | | | | | | | | |
| 4 | Qo'ng'irot | 39 | 22256 | 3685 | 30 | 1584 | 374 | 19 | 310 | 31 | 1 | | | 6 | 960 | 230 | | | | | | | 4 | 314 | 113 |
| 5 | Mo'ynoq | 12 | 4763 | 156 | 4 | 427 | 682 | 2 | 120 | 29 | | | | 1 | 94 | 14 | | | | | | | 1 | 213 | 639 |
| 6 | To'rtko'l | 49 | 51325 | 5540 | 14 | 13320 | 1579 | 9 | 10152 | 914 | 2 | 598 | 144 | 1 | 714 | 171 | 1 | 1471 | 264 | 1 | 385 | 87 | | | |
| 7 | Beruniy | 40 | 35500 | 7147 | 17 | 12069 | 1359 | 10 | 8231 | 741 | 2 | 841 | 202 | 2 | 649 | 156 | 2 | 1981 | 178 | 1 | 367 | 83 | | | |
| 8 | Ellikqal'a | 40 | 28342 | 6205 | 18 | 16145 | 1866 | 11 | 12145 | 1093 | 2 | 1642 | 394 | 2 | 893 | 214 | 2 | 1349 | 162 | 1 | 116 | 2 | | | |
| 9 | Kegeyli | 16 | 13608 | 2814 | 9 | 1302 | 174 | 6 | 568 | 34 | 1 | 457 | 110 | 1 | 182 | 27 | 1 | 95 | 3 | | | | | | |
| 10 | Bo'zatov | 5 | 3567 | 693 | 0 | 0 | 0 | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 11 | Chimboy | 22 | 19690 | 3405 | 11 | 4772 | 894 | 7 | 1773 | 276 | 1 | 1167 | 420 | 2 | 1214 | 170 | 1 | 618 | 28 | | | | | | |
| 12 | Qorao'zak | 13 | 9262 | 657 | 4 | 1598 | 1606 | 2 | 512 | 31 | | 348 | 52 | 1 | 286 | 43 | | | | | | | 1 | 452 | 1480 |
| 13 | Taxtako'pir | 17 | 6965 | 1366 | 10 | 1696 | 301 | 6 | 824 | 198 | 1 | 326 | 29 | 1 | 243 | 36 | 1 | 142 | 6 | | | | 1 | 161 | 32 |
| 14 | Nukus tumani | 13 | 11186 | 878 | 4 | 1040 | 450 | 2 | 412 | 25 | | 365 | 33 | 1 | 185 | 28 | | | | | | | 1 | 78 | 365 |
| 15 | Xo'jayli | 28 | 18145 | 850 | 16 | 2391 | 338 | 10 | 841 | 50 | 2 | 486 | 44 | 2 | 316 | 47 | 1 | 722 | 28 | | | | 1 | 26 | 168 |
| 16 | Taxiyatosh | 14 | 11244 | 1819 | 8 | 1355 | 109 | 5 | 524 | 31 | 1 | 467 | 42 | 1 | 147 | 22 | 1 | 217 | 13 | | | | | | |
| 17 | Nukus shahri | 71 | 49294 | 1241 | 47 | 6219 | 265 | 30 | 3120 | 187 | 5 | 512 | 10 | 6 | 1022 | 20 | 6 | 1565 | 47 | | | | | | |
| | **Jami** | **452** | **342335** | **46866** | **223** | **83432** | **13801** | **137** | **51 609** | **5634** | **23** | **10 469** | **2194** | **31** | **7 881** | **1410** | **18** | **10877** | **1314** | **4** | **1 306** | **269** | **10** | **1 290** | **2981** |

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining
2023-yil 18-noyabrdagi
413-13-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida 2023-yilda "Bir mahalla bir mahsulot" tamoyili asosida bir xil turdagi mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtiriladigan mahallalar to'g'risida**
**PROGNOZ KO'RSATKICHLAR**

| T/p | Tuman (shahar)lar nomi | Jami MFYlar soni | Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari soni | Jami ekin maydoni, ga | 2024-yil ixtisoslashadigan MFYlar jami | Shu jumladan: | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | Sabzavotchilik | Kartoshkachilik | Polizchilik | Meva-bog'dorchilik | Rezavor mevalar | Chorvachilik *(sigir, qo'y va echki)* |
| 1 | Amudaryo | 49 | 39853 | 6652 | 28 | 12 | 5 | 7 | 3 | | 1 |
| 2 | Sho'manoy | 13 | 8110 | 2045 | 8 | 6 | 1 | 1 | | | |
| 3 | Qonliko'l | 11 | 9225 | 1712 | 6 | 2 | 1 | 2 | 1 | | |
| 4 | Qo'ng'irot | 39 | 22256 | 3685 | 9 | 3 | 2 | 3 | | | 1 |
| 5 | Mo'ynoq | 12 | 4763 | 156 | 4 | | | | | | 4 |
| 6 | To'rtko'l | 49 | 51325 | 5540 | 35 | 15 | 11 | 3 | 5 | | 1 |
| 7 | Beruniy | 40 | 35500 | 7147 | 23 | 8 | 4 | 6 | 4 | 1 | |
| 8 | Ellikqal'a | 40 | 28342 | 6205 | 22 | 7 | 3 | 5 | 6 | 1 | |
| 9 | Kegeyli | 16 | 13608 | 2814 | 7 | 3 | 1 | 2 | 1 | | |
| 10 | Bo'zatov | 5 | 3567 | 693 | 3 | | | 1 | | | 2 |
| 11 | Chimboy | 22 | 19690 | 3405 | 11 | 4 | 3 | 1 | 3 | | |
| 12 | Qorao'zak | 13 | 9262 | 657 | 9 | 2 | 3 | 2 | 2 | | |
| 13 | Taxtako'pir | 17 | 6965 | 1366 | 7 | 3 | | 1 | | | 3 |
| 14 | Nukus tumani | 13 | 11186 | 878 | 9 | 1 | 3 | 3 | 2 | | |
| 15 | Xo'jayli | 28 | 18145 | 850 | 12 | 3 | 4 | 2 | 3 | | |
| 16 | Taxiyatosh | 14 | 11244 | 1819 | 6 | 2 | 2 | 2 | | | |
| 17 | Nukus shahri | 71 | 49294 | 1241 | 24 | 8 | 7 | 5 | 4 | | |
| | **Jami** | **452** | **342335** | **46866** | **223** | **79** | **50** | **46** | **34** | **2** | **12** |

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining
2023-yil 18-noyabrdagi
413-13-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

**Qoraqalpog‘isotn Respublikasi tumanlarida 2024-yilda aholi tomorqa yerlarida tashkil etilishi rejalashtirilgan ixcham issiqxonalar bo‘yicha**

**PROGNOZ KO‘RSATKICHLAR**

| T/r | Tuman (shahar)lar nomi | 2024-yilda tashkil etilishi rejalashtirilgan issiqxonalar | | *Shundan* | | | | Issiqxonada bandligi ta’minlanadigan fuqarolar soni |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Namunaviy loyiha | | Mahalliy homashyodan *(yog‘ochdan)* | | |
| | | soni | maydoni, ga | soni | maydoni, ga | soni | maydoni, ga | |
| 1 | Amudaryo | 877 | 12,8 | 161 | 3,2 | 716 | 9,6 | 877 |
| 2 | Sho‘manoy | 391 | 6,3 | 64 | 0,6 | 327 | 5,7 | 391 |
| 3 | Qonliko‘l | 484 | 7,3 | 82 | 0,8 | 402 | 6,4 | 484 |
| 4 | Qo‘ng‘irot | 389 | 6,3 | 63 | 0,6 | 326 | 5,7 | 389 |
| 5 | Mo‘ynoq | 153 | 3,9 | 15 | 0,2 | 138 | 3,8 | 153 |
| 6 | To‘rtko‘l | 853 | 19,5 | 157 | 3,1 | 696 | 16,3 | 853 |
| 7 | Beruniy | 861 | 19,6 | 158 | 3,2 | 703 | 16,5 | 861 |
| 8 | Ellikqal’a | 846 | 13,8 | 155 | 3,1 | 691 | 10,7 | 846 |
| 9 | Kegeyli | 301 | 5,4 | 46 | 0,5 | 255 | 5,0 | 301 |
| 10 | Bo‘zatov | 158 | 4,0 | 15 | 0,2 | 143 | 3,8 | 158 |
| 11 | Chimboy | 385 | 6,3 | 63 | 0,6 | 322 | 5,6 | 385 |
| 12 | Qorao‘zak | 279 | 5,2 | 41 | 0,4 | 238 | 4,8 | 279 |
| 13 | Taxtako‘pir | 254 | 5,0 | 36 | 0,4 | 218 | 4,6 | 254 |
| 14 | Nukus tumani | 444 | 6,9 | 74 | 0,7 | 370 | 6,1 | 444 |
| 15 | Xo‘jayli | 480 | 7,2 | 81 | 0,8 | 399 | 6,4 | 480 |
| 16 | Taxiyatosh | 435 | 6,8 | 72 | 0,7 | 363 | 6,0 | 435 |
| 17 | Nukus shahri | 249 | 4,9 | 37 | 0,4 | 212 | 4,5 | 249 |
| | **Jami** | **7839** | **141** | **1320** | **20** | **6519** | **122** | **7839** |

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023-yil 18-noyabrdagi
413-13-0-Q/23-son qaroriga
4-ilova

**2024-yilda suv ta'minoti og'ir hududlardagi tomorqa yer egalarining ekin maydonlarini sug'orish uchun arteziyan quduqlarini qazish to'g'risida**
**PROGNOZ KO'RSATKICHLAR**

| T/r | Tuman (shahar)lar nomi | Quduq qaziladigan MFYlar soni | Jami qaziladigan quduqlar soni | *shundan:* Kichik quduq | Katta quduq | Suv bilan ta'minlanadigan xonadonlar soni | Suv bilan ta'minlanadigan maydon, ga |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Sho'manoy | 5 | 16 | 16 | | 32 | 3,8 |
| 2 | Qonliko'l | 7 | 12 | 12 | | 24 | 2,9 |
| 3 | Qo'ng'irot | 3 | 6 | 6 | | 12 | 1,4 |
| 4 | To'rtko'l | 4 | 15 | 15 | | 30 | 3,6 |
| 5 | Beruniy | 3 | 13 | 13 | | 26 | 3,1 |
| 6 | Ellikqal'a | 3 | 17 | 17 | | 34 | 4,1 |
| 7 | Kegeyli | 3 | 10 | 10 | | 20 | 2,4 |
| 8 | Bo'zatov | 2 | 8 | 8 | | 16 | 1,9 |
| 9 | Chimboy | 8 | 22 | 22 | | 44 | 5,3 |
| 10 | Qorao'zak | 5 | 8 | 8 | | 16 | 1,9 |
| 11 | Taxtako'pir | 5 | 14 | 14 | | 20 | 2,6 |
| 12 | Xo'jayli | 4 | 12 | 12 | | 24 | 2,9 |
| **Jami** | | **52** | **153** | **153** | | **298** | **36,0** |

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023-yil 18-noyabrdagi
413-13-0-Q/23-son qaroriga
5-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasida 2024-yilda bog' va uzumzorlar orasiga ekilgan ekinlardan olinadigan mahsulotlar**
**REJASI**

*tonna*

| T/r | Tuman (shahar)lar nomi | Jami | | | Shundan: | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | piyoz | | | sarimsoqpiyoz | | | ko'katlar | | | boshqalar | | |
| | | gektar | ts/ga | tonna | gektar | ts/ga | tonna | gektar | ts/ga | tonna | gektar | ts/ga | tonna | gektar | ts/ga | tonna |
| 1 | To'rtko'l | 670 | 173 | 11 591 | 323 | 210 | 6 776 | 67 | 90 | 603 | 80 | 130 | 1 034 | 201 | 158 | 3 177 |
| 2 | Beruniy | 693 | 173 | 11 964 | 331 | 210 | 6 952 | 69 | 90 | 624 | 85 | 130 | 1 103 | 208 | 158 | 3 286 |
| 3 | Ellikqal'a | 843 | 172 | 14 503 | 383 | 210 | 8 036 | 84 | 90 | 759 | 84 | 130 | 1 096 | 292 | 158 | 4 612 |
| 4 | Amudaryo | 790 | 173 | 13 669 | 382 | 210 | 8 013 | 79 | 90 | 711 | 92 | 130 | 1 200 | 237 | 158 | 3 744 |
| 5 | Taxiatosh | 173 | 168 | 2 912 | 84 | 202 | 1 692 | 17 | 90 | 156 | 20 | 125 | 251 | 52 | 157 | 814 |
| 6 | Xo'jayli | 309 | 167 | 5 178 | 149 | 202 | 3 010 | 31 | 90 | 279 | 37 | 125 | 460 | 93 | 154 | 1 430 |
| 7 | Sho'manoy | 272 | 162 | 4 404 | 134 | 190 | 2 544 | 27 | 90 | 245 | 30 | 120 | 355 | 82 | 154 | 1 259 |
| 8 | Qonliko'l | 101 | 160 | 1 617 | 48 | 190 | 910 | 10 | 90 | 91 | 13 | 120 | 150 | 30 | 154 | 465 |
| 9 | Qo'ng'irot | 342 | 159 | 5 439 | 158 | 190 | 2 999 | 34 | 90 | 307 | 47 | 120 | 565 | 102 | 153 | 1 568 |
| 10 | Nukus t | 296 | 167 | 4 931 | 141 | 200 | 2 825 | 30 | 90 | 266 | 36 | 125 | 455 | 89 | 156 | 1 385 |
| 11 | Kegeyli | 183 | 162 | 2 958 | 87 | 190 | 1 660 | 18 | 90 | 164 | 22 | 125 | 278 | 55 | 156 | 855 |
| 12 | Bo'zatov | 95 | 162 | 1 530 | 47 | 190 | 887 | 9 | 90 | 85 | 10 | 120 | 121 | 28 | 154 | 437 |
| 13 | Chimboy | 306 | 161 | 4 933 | 150 | 190 | 2 841 | 31 | 90 | 275 | 34 | 120 | 406 | 92 | 154 | 1 412 |
| 14 | Qorao'zak | 183 | 161 | 2 950 | 89 | 190 | 1 688 | 18 | 90 | 165 | 21 | 120 | 252 | 55 | 154 | 846 |
| 15 | Taxtako'pir | 120 | 160 | 1 920 | 56 | 190 | 1 065 | 12 | 90 | 108 | 16 | 120 | 192 | 36 | 154 | 555 |
| 16 | Mo'ynoq | 79 | 156 | 1 233 | 38 | 180 | 691 | 8 | 90 | 71 | 9 | 120 | 110 | 24 | 152 | 361 |
| 17 | Nukus sh | 90 | 161 | 1 443 | 41 | 190 | 775 | 9 | 90 | 81 | 13 | 130 | 169 | 27 | 156 | 419 |
| **Jami** | | **5 545** | **168** | **93 176** | **2 639** | **202** | **53 364** | **554** | **90** | **4 990** | **649** | **126** | **8 197** | **1 702** | **156** | **26 625** |

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023-yil 18-noyabrdagi
413-13-0-Q/23-son qaroriga
6-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasida 2023-2024-yillarda paxta-to'qimachilik klaster korxonalari va fermer xo'jaliklari hisobidagi ichki sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish**
**KO'RSATKICHLAR**

| T/r | Tumanlar nomi | Betonlashtiradigan paxta-to'qimachilik klaster korxonalari soni | Ichki kanallarni umumiy uzunligi, km | Betonlash-tiriladigan qismi, km | shundan: | | Talab etiladigan mablag', *(mln so'm)* | Amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida tejaladigan suv mig'dori, *(mln m3)* |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 2023-yilda | 2024-yilda | | |
| 1 | To'rtko'l | 1 | 1871,0 | 25,2 | 7,6 | 17,6 | 15 120 | 14,5 |
| 2 | Qonliko'l | | 1580,0 | 22,4 | 6,7 | 15,7 | 13 440 | 12,9 |
| 3 | Qo'ng'irot | | 1611,0 | 26,6 | 8,0 | 18,6 | 15 960 | 15,3 |
| 4 | Beruniy | 1 | 1164,0 | 18,8 | 5,6 | 13,2 | 11 280 | 10,8 |
| 5 | Ellikqal'a | 2 | 1793,0 | 20,8 | 6,2 | 14,6 | 12 480 | 11,8 |
| 6 | Amudaryo | 1 | 1342,0 | 21,8 | 6,5 | 15,3 | 13 080 | 12,5 |
| 7 | Xo'jayli | 1 | 629,0 | 24,1 | 7,2 | 16,9 | 14 460 | 13,8 |
| 8 | Taxiatosh | 1 | 246,1 | 12,6 | 3,8 | 8,8 | 7 560 | 7,3 |
| 9 | Sho'manoy | 2 | 560,0 | 23,4 | 7,0 | 16,4 | 14 040 | 13,5 |
| 10 | Nukus | 1 | 466,3 | 18,8 | 5,6 | 13,2 | 11 280 | 10,8 |
| 11 | Kegeyli | 1 | 468,0 | 21,6 | 6,5 | 15,1 | 12 960 | 12,4 |
| 12 | Chimboy | | 816,4 | 18,5 | 5,55 | 12,95 | 11 100 | 10,6 |
| 13 | Qorao'zak | 1 | 1502,0 | 22,4 | 6,72 | 15,68 | 13 440 | 12,9 |
| 14 | Taxtako'pir | | 1351,0 | 23,4 | 7,0 | 16,4 | 14 040 | 13,5 |
| **Jami** | | **12** | **15399,8** | **300,4** | **90,1** | **210,3** | **180 240** | **172,6** |

**) Loyiha-smeta hujjatiga asosan qiymati va quvvatida o'zgarish bo'lishi mumkin.*

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023-yil 18-noyabrdagi
413-13-0-Q/23-son qaroriga
7-ilova

**Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-2024-yillarda xo‘jalik ichki nasos agregatlarini ta’mirlash, eskirgan nasoslarni yangisiga almashtirish bo‘yicha**

**PROGNOZ KO‘RSATKICHLAR**

| T/r | Tumanlar nomi | Klaster va fermer xo‘jaliklari soni | Jami ta’mirlanadigan nasos agregati va elektrodvigatellar soni, dona | | shu jumladan: | | | | | | | | | | | | Amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida iqtisod qilinadigan elektr energiya, *(ming kVt)* |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Nasos agregatlar soni, dona | | shundan: | | | | Elektr dvigatellar soni, dona | | shundan: | | | | |
| | | | | | | | Ta‘mirlanadigan nasos agregatlar | | Yangisiga almashtiri-ladigan nasos agregatlar | | | | Ta’mir-lanadigan elektro-dvigatellar | | Yangisiga elektro-dvigatellar | | |
| | | | soni | mln so‘m | soni | mln so‘m | soni | mln so‘m | soni | mln so‘m | soni | mln so‘m | soni | mln so‘m | soni | mln so‘m | |
| | **2023-yilda** | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 1 | To‘rtko‘l | 1 | 11 | 489 | 9 | 335 | 7 | 175 | 2 | 160 | 2 | 154 | | | 2 | 154 | 51 |
| 2 | Beruniy | 1 | 6 | 471 | 3 | 240 | | | 3 | 240 | 3 | 231 | | | 3 | 231 | 34,5 |
| 3 | Ellikqal‘a | 1 | 7 | 389 | 5 | 235 | 3 | 75 | 2 | 160 | 2 | 154 | | | 2 | 154 | 35 |
| 4 | Amudaryo | 3 | 9 | 1035 | 6 | 585 | 3 | 75 | 3 | 510 | 3 | 450 | | | 3 | 450 | 46,5 |
| 5 | Xo‘jayli | 2 | 6 | 690 | 4 | 390 | 2 | 50 | 2 | 340 | 2 | 300 | | | 2 | 300 | 31,0 |
| 6 | Taxiatosh | 1 | 3 | 345 | 2 | 195 | 1 | 25 | 1 | 170 | 1 | 150 | | | 1 | 150 | 15,5 |
| 7 | Qonliko‘l | 2 | 6 | 690 | 4 | 390 | 2 | 50 | 2 | 340 | 2 | 300 | | | 2 | 300 | 31,0 |
| 8 | Sho‘manoy | 2 | 6 | 690 | 4 | 390 | 2 | 50 | 2 | 340 | 2 | 300 | | | 2 | 300 | 31,0 |
| 9 | Qo‘ng‘irot | 3 | 9 | 1035 | 6 | 585 | 3 | 75 | 3 | 510 | 3 | 450 | | | 3 | 450 | 46,5 |
| 10 | Mo‘ynoq | 2 | 6 | 690 | 4 | 390 | 2 | 50 | 2 | 340 | 2 | 300 | | | 2 | 300 | 31,0 |
| 11 | Nukus | 3 | 9 | 1035 | 6 | 585 | 3 | 75 | 3 | 510 | 3 | 450 | | | 3 | 450 | 46,5 |
| 12 | Kegeyli | 2 | 6 | 690 | 4 | 390 | 2 | 50 | 2 | 340 | 2 | 300 | | | 2 | 300 | 31,0 |
| 13 | Bo‘zatov | 2 | 6 | 690 | 4 | 390 | 2 | 50 | 2 | 340 | 2 | 300 | | | 2 | 300 | 31,0 |
| 14 | Chimboy | 2 | 6 | 690 | 4 | 390 | 2 | 50 | 2 | 340 | 2 | 300 | | | 2 | 300 | 31,0 |
| 15 | Qorao‘zak | 1 | 3 | 345 | 2 | 195 | 1 | 25 | 1 | 170 | 1 | 150 | | | 1 | 150 | 15,5 |
| 16 | Taxtako‘pir | 1 | 3 | 345 | 2 | 195 | 1 | 25 | 1 | 170 | 1 | 150 | | | 1 | 150 | 15,5 |
| | **Jami** | **29** | **102** | **10319** | **69** | **5880** | **36** | **900** | **33** | **4980** | **33** | **4439** | | | **33** | **4439** | **523,5** |
| | **2024-yilda** | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 1 | To‘rtko‘l | 1 | 7 | 257 | 6 | 180 | 5 | 100 | 1 | 80 | 1 | 77 | | | 1 | 77 | 31,5 |
| 2 | Beruniy | 1 | 3 | 240 | 1 | 80 | | | 1 | 80 | 2 | 160 | | | 2 | 160 | 17,5 |
| 3 | Ellikqal‘a | 1 | 3 | 177 | 2 | 100 | 1 | 20 | 1 | 80 | 1 | 77 | | | 1 | 77 | 15,5 |
| 4 | Amudaryo | 3 | 8 | 1010 | 5 | 560 | 2 | 50 | 3 | 510 | 3 | 450 | | | 3 | 450 | 49 |
| 5 | Xo‘jayli | 2 | 6 | 690 | 4 | 390 | 2 | 50 | 2 | 340 | 2 | 300 | | | 2 | 300 | 31,0 |
| 6 | Taxiatosh | 1 | 3 | 345 | 2 | 195 | 1 | 25 | 1 | 170 | 1 | 150 | | | 1 | 150 | 15,5 |
| 7 | Qonliko‘l | 2 | 6 | 690 | 4 | 390 | 2 | 50 | 2 | 340 | 2 | 300 | | | 2 | 300 | 31,0 |
| 8 | Sho‘manoy | 2 | 5 | 665 | 3 | 365 | 1 | 25 | 2 | 340 | 2 | 300 | | | 2 | 300 | 32,5 |
| 9 | Qo‘ng‘irot | 3 | 9 | 1035 | 6 | 585 | 3 | 75 | 3 | 510 | 3 | 450 | | | 3 | 450 | 48,5 |
| 10 | Mo‘ynoq | 2 | 5 | 665 | 3 | 365 | 1 | 25 | 2 | 340 | 2 | 300 | | | 2 | 300 | 31,0 |
| 11 | Nukus | 3 | 8 | 1010 | 5 | 560 | 2 | 50 | 3 | 510 | 3 | 450 | | | 3 | 450 | 46 |
| 12 | Kegeyli | 2 | 6 | 690 | 4 | 390 | 2 | 50 | 2 | 340 | 2 | 300 | | | 2 | 300 | 32,5 |
| 13 | Bo‘zatov | 2 | 6 | 690 | 4 | 390 | 2 | 50 | 2 | 340 | 2 | 300 | | | 2 | 300 | 32,5 |
| 14 | Chimboy | 2 | 6 | 690 | 4 | 390 | 2 | 50 | 2 | 340 | 2 | 300 | | | 2 | 300 | 32,5 |
| 15 | Qorao‘zak | 1 | 2 | 320 | 1 | 170 | | | 1 | 170 | 1 | 150 | | | 1 | 150 | 14,5 |
| 16 | Taxtako‘pir | 1 | 3 | 345 | 2 | 195 | 1 | 25 | 1 | 170 | 1 | 150 | | | 1 | 150 | 15,5 |
| | **Jami** | **29** | **86** | **9519** | **56** | **5305** | **27** | **645** | **29** | **4660** | **30** | **4214** | | | **30** | **4214** | **476,5** |
| | **Jami 2023-2024** | **58** | **188** | **19838** | **125** | **11185** | **63** | **1545** | **62** | **9640** | **63** | **8653** | | | **63** | **8653** | **1000** |

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining
2023-yil 18-noyabrdagi
413-13-0-Q/23-son qaroriga
8-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasida 2023-2024-yillarning kuz-qish davrida xo'jalik ichki sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalash va ta'mirlash**
**R E J A S I**

| T/r | Tumanlar nomi | Paxta-to'qimachilik klaster korxonalari soni | Jami tozalash *(km)* | *shundan:* kanal, ariqlarni *(mexanizm va qo'l kuchi bilan)* tozalash | | kollektor-drenajlarni tozalash | Jalb etiladigan mexanizmlar soni, *(dona)* | Amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida tejaladigan suv mig'dori, *(mln m3)* |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | 2023-yil | 2024-yil | | | |
| 1 | To'rtko'l | 1 | 53,5 | 23,5 | 6,1 | 23,9 | 4 | 2,5 |
| 2 | Qonliko'l | | 160,7 | 35,6 | 76,5 | 48,6 | 7 | 9,4 |
| 3 | Qo'ng'irot | | 113,9 | 46,4 | 29,5 | 38,0 | 6 | 6,4 |
| 4 | Beruniy | 1 | 81,6 | 52,4 | 17,0 | 12,2 | 5 | 5,8 |
| 5 | Ellikqal'a | 2 | 184,5 | 135,0 | 35,0 | 14,5 | 7 | 14,3 |
| 6 | Amudaryo | 1 | 119,2 | 59,3 | 34,0 | 25,9 | 5 | 7,8 |
| 7 | Xo'jayli | 1 | 22,1 | 13,8 | 8,3 | | 1 | 1,9 |
| 8 | Taxiatosh | 1 | 54,6 | 39,0 | 15,6 | | 3 | 4,6 |
| 9 | Sho'manoy | 2 | 122,2 | 98,0 | 8,6 | 15,6 | 7 | 9,0 |
| 10 | Nukus | 1 | 77,4 | 51,1 | 11,1 | 15,2 | 5 | 5,2 |
| 11 | Kegeyli | 1 | 43,7 | 15,5 | 10,2 | 18,0 | 3 | 2,2 |
| 12 | Chimboy | | 81,8 | 49,3 | 7,4 | 25,1 | 5 | 4,8 |
| 13 | Qorao'zak | 1 | 133,6 | 79,9 | 45,4 | 8,3 | 6 | 10,6 |
| 14 | Taxtako'pir | | 133,2 | 76,8 | 41,3 | 15,1 | 7 | 9,9 |
| **Jami** | | **12** | **1382,0** | **775,6** | **345,9** | **260,4** | **71** | **94,4** |

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023-yil 18-noyabrdagi
413-13-0-Q/23-son qaroriga
9-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-dekabrdagi 703-sonli qarori asosida agroklasterlar boshqaruviga beriladigan suv xo'jaligi obyektlari**
**KO'RSATKICHLAR**

| T/r | Tumanlar nomi | Klaster va fermer xo'jaliklari soni | Davlat hisobidagi | | | Ichki *(klaster, fermer)* hisobidagi | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | DXSH sharti asosida bitim bilan berish | | | Dalolatnoma balansga berish | |
| | | | kanal, km | nasos stantsiya, dona | kollektor-drenaj, km | kanallar, km | kollektor-drenaj tarmogi, km |
| 1 | To'rtko'l | 1 | | | | | 1 312,0 |
| 2 | Beruniy | 1 | | | | | 970,6 |
| 3 | Ellikqal'a | 4 | | | | | 1 222,0 |
| 4 | Amudaryo | 4 | | 3 | | | 1 287,6 |
| 5 | Xo'jayli | 4 | | 4 | | | 540,2 |
| 6 | Taxiatosh | 1 | | | | | 218,5 |
| 7 | Sho'manoy | 4 | | | | | 838,6 |
| 8 | Qonliko'l | 7 | | 5 | | | 1 466,2 |
| 9 | Qo'ng'irot | 3 | | 1 | | | 1 343,7 |
| 10 | Mo'ynoq | 1 | | 1 | | | |
| 11 | Nukus | 7 | | 3 | | | 1 189,7 |
| 12 | Kegeyli | 5 | | 1 | | | 948,9 |
| 13 | Chimboy | 4 | | 2 | | | 1 413,4 |
| 14 | Qorao'zak | 7 | | 4 | | | 1 486,4 |
| 15 | Taxtako'pir | 5 | | 1 | | | 1 267,8 |
| **Jami** | | **58** | | **25** | | | **15505,6** |

Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023-yil 18-noyabrdagi
413-13-0-Q/23-son qaroriga
10-ilova

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlarida faoliyat yuritayotgan “xalqchil klaster” paxta-to‘qimachilik klasterlar korxonalarining tashabbuslari bilan amalga oshirilishi belgilangan tadbirlar REJASI

| T/r | Tumanlar nomi | Paxta-to‘qimachilik klaster korxonalari soni | Asosiy yo‘nalishdagi loyihalar va ish o‘rinlari | | | | | | | | | | | | Yaratiladigan ish o‘rinlari |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | yer o‘zlashtirish | | chorva kompleksini tashkil qilish | | asalari uyasini yetkazib berish | | tuproq analizi laboratoriyasini tashkil etish | | sanoat ishlab chikarish korxonalarini yo‘lga qo‘yish | | issiqxona tashkil qilish | | |
| | | | ga | ish o‘rni | bosh soni | ish o‘rni | uya soni | ish o‘rni | dona | ish o‘rni | soni | ish o‘rni | ga | ish o‘rni | |
| 1 | To‘rtko‘l | | | | | | | | | | | | | | |
| 2 | Qonliko‘l | 1 | 6500 | 4875 | 1800 | 180 | 5200 | 520 | 1 | 8 | 1 | 1500 | 18 | 1800 | 8883 |
| 3 | Qo‘ng‘irot | | | | | | | | | | | | | | |
| 4 | Beruniy | 1 | 3000 | 2250 | 800 | 80 | 2600 | 260 | 1 | 8 | 1 | 1000 | 8 | 800 | 4398 |
| 5 | Ellikqala | 2 | 3000 | 2250 | 1400 | 140 | 2600 | 260 | 2 | 16 | 2 | 1500 | 14 | 1400 | 5566 |
| 6 | Amudaryo | 1 | 3000 | 2250 | 800 | 80 | 4000 | 400 | 1 | 8 | 1 | 1000 | 8 | 800 | 4538 |
| 7 | Xo‘jayli | 1 | 3000 | 2250 | 800 | 80 | 1700 | 170 | 1 | 8 | 1 | 800 | 6 | 600 | 3908 |
| 8 | Taxiatosh | 1 | 500 | 375 | 600 | 60 | 800 | 80 | 1 | 8 | 1 | 500 | 5 | 500 | 1523 |
| 9 | Sho‘manoy | 2 | 6000 | 4500 | 1200 | 120 | 1500 | 150 | 2 | 16 | 2 | 1200 | 12 | 1200 | 7186 |
| 10 | Kegeyli | 1 | 6000 | 4500 | 1000 | 100 | 3400 | 340 | 1 | 8 | 1 | 1000 | 12 | 1200 | 7148 |
| 11 | Chimboy | | | | | | | | | | | | | | |
| 12 | Nukus t | 1 | 3000 | 2250 | 600 | 60 | 600 | 60 | 1 | 8 | 1 | 500 | 5 | 500 | 3378 |
| 13 | Qorao‘zak | 1 | 6000 | 4500 | 1000 | 100 | 2600 | 260 | 1 | 8 | 1 | 1000 | 12 | 1200 | 7068 |
| 14 | Taxtako‘pir | | | | | | | | | | | | | | |
| **Жами** | | **12** | **40000** | **30000** | **10000** | **1000** | **25000** | **2500** | **12** | **96** | **12** | **10000** | **100** | **10000** | **53596** |

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining
2023-yil 18-noyabrdagi
413-13-0-Q/23-son qaroriga
11-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasida 2024-yilda chorvachilik va parrandachilik yo'nalishida yangidan kompleks tashkil etish**
**REJASI**

| T/r | Tumanlar nomi | OFY, MFY nomi | Loyiha tashabbuskor nomi | Yo'nalishi | Qoramol va parranda boqish quvvati *(bosh)* | Yillik ishlab chiqarish | | Yillik qayta ishlash | | Ozuqa-yem tayyorlash rejasi *(Yillik tonna)* | So'yish qushxona *(yillik bosh)* | Loyiha qiymati, *(mln so'm)* | shundan: | | Ish o'rni | Ishga tushirish muddati |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | Go'sht, tonna | Sut, tonna | Go'sht, tonna | Sut, tonna | | | | o'z mablag'i | bank krediti | | |
| 1 | Taxtako'pir | "Atako'l" OFY | "Qaraqalpaqstan agro klaster" MCHJ | chorvachilik | 500 | 15 | 1200 | 0,5 | 28,6 | 100 | 500 | 24000 | 4000 | 20000 | 25 | 01.12.2024 |
| 2 | Qo'ng'irot | "Qo'ng'irot " OFY | "Qo'ng'irot paxta klaster" MCHJ | chorvachilik | 500 | 20 | 1250 | | 37,8 | 100 | 500 | 24000 | 4000 | 20000 | 25 | 30.04.2024 |
| 3 | Nukus | "Samanbay" OFY | "Nukus broyler" MCHJ | parrandachilik | 50000 | 600 | | | | | | 59600 | 23800 | 35700 | 50 | 30.09.2024 |
| **Jami** | | | | | **51000** | **635** | **2450** | **0,5** | **66,4** | **200** | **1000** | **107600** | **31800** | **75700** | **100** | **x** |